

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TO‘RAYEV JASURALI TO‘RAYEVICH

INVESTITSION MUHIT BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 330.322:005.22(575.152)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
economic sciences**

To'rayev Jasurali To'rayevich

Investition muhit boshqaruvini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida)..... 3

Тураев Жасурали Тураевич

Совершенствование управления инвестиционным климатом (на примере
Кашкадарьинской области) 29

Turaev Jasurali Turaevich

Improving the management of the investment climate (on the example of
Kashkadarya region)..... 57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 62

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TO‘RAYEV JASURALI TO‘RAYEVICH

INVESTITSION MUHIT BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt5573 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qosimova Dilorom Sobirovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor v.b.

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.1.23.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "22" "09" kuni soat "14.30" dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72, Faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72, Faks: (99871) 239-43-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "9" "09" kuni tarqatildi.
(2026-yil "8" "09" dagi 58 raqamli reyestr bayonnomasi).



Q. Abduraxmanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djurabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

Sh.A. Allayarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining jadallashtirishi, xalqaro kapital harakatining faollashuvi, hududlar o'rtasida investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha raqobatning kuchayishi hamda iqtisodiy rivojlanishning hududiy xususiyatlari investitsion muhitni samarali boshqarish masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Mamlakatlarning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va hududlarning raqobatbardoshligini oshirishda investitsiyalar muhim strategik omil hisoblanadi. Shu sababli investitsiyalarni shunchaki jalb qilish emas, balki hududning investitsion jozibadorligini oshirish, mavjud investitsion salohiyatdan samarali foydalanish va investitsion jarayonlarni zamonaviy boshqaruv mexanizmlari asosida tashkil etish muhim vazifalardan biridir. Rivojlangan va izchil taraqqiy etayotgan davlatlar (Yaponiya, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Xitoy va boshqalar) tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, investitsion muhitni boshqarish tizimini takomillashtirishda hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyati, infratuzilmaviy ta'minoti, mehnat resurslari, tadbirkorlik faolligi, institutsional muhit, moliyaviy imkoniyatlar, davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyoz va investorlar huquqlarining kafolatlanganlik darajasi kabi omillarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, hududlar kesimida investitsion muhitni kompleks baholash, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, investitsion risklarni kamaytirish va boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Xalqaro ilmiy-tadqiqot institutlarida investitsion muhitni takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan izlanishlarda davlatning investitsiya siyosati, huquqiy va institutsional kafolatlar, moliyaviy bozorlarning rivojlanganlik darajasi, infratuzilma, raqobat muhiti, mehnat resurslari va investorlar uchun yaratilgan xizmatlar tizimiga asosiy omillar sifatida qaralmoqda. Jahon bankining Business Ready¹ yondashuvida investitsion va biznes muhitini baholashda "Regulatory Framework", "Public Services" va "Operational Efficiency" kabi uchta asosiy yo'nalishdan foydalanilishi ham investitsion muhitni kompleks boshqarish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda kapital oqimlarini jalb qilish bilan bir qatorda, ularning iqtisodiyotga qo'shadigan qiymatini oshirish, investitsiyalarni yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarga yo'naltirish va hududlar o'rtasidagi investitsion tafovutlarni kamaytirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli investitsion muhitni boshqarishning mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, uning asosiy determinantlarini aniqlash va baholash, investitsion jozibadorlikni oshirishning samarali vositalarini ishlab chiqish bugungi kunda muhim ilmiy-tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

¹ https://www.worldbank.org/en/businessready/publications?utm_source

O‘zbekistonda iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, xususiy sektorni rivojlantirish, mahalliy hamda xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va investitsion muhitni yaxshilash bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. 2025-yilda O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar² hajmi 591,1 trln so‘mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 10,5 foizga oshgan, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar esa 33,5 mlrd AQSh dollariga yetgan. Shu bilan birga, Jahon banki O‘zbekistonda investitsion muhitni yanada yaxshilash uchun investorlarni himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, investitsiyalarni rag‘batlantirish institutlarini takomillashtirish, xususiylashtirish va davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan kengroq foydalanish hamda investitsiyalarni jalb qilish va saqlab qolish mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini qayd etmoqda. Shu bois, investitsiyalarni jalb qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, investitsion muhit boshqaruvini takomillashtirish yo‘nalishida ilmiy-tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu, o‘z navbatida, investitsion muhitning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, unga ta‘sir etuvchi omillarni tizimli va kompleks baholash, investitsion jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish hamda O‘zbekiston hududlarining mavjud investitsion salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF–5495-son “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 14-maydagi PF–5717-son “O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 25-dekabrda O‘RQ–598-son O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 2-iyundagi PF–6003-son “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indeksdagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi, Farmoni, 2025-yil 18-dekabrda PF–254-son “Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2025-yil 23-iyundagi PF–97-son “Mamlakatimizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2025-yil 24-martda PQ–118-son “Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida qattiq maishiy chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish, investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror, 2024-yil 27-avgustda PQ–303-son “O‘zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga oid tegishli bo‘lgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

² https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66505-2025-jilda-asosij-kapitalga-investitsiyalar-591-1-trln-s-mga-etdi-2?utm_source

Тадqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Investitsion muhitni yaxshilash va jalb qilingan investitsiyalar samaradorligini oshirish masalalari B.Garrett, G. Jereffi, R.Kapliniski, M.Lorens, P.Maskell, S.Rezenfeld, M.Simaguti, M.Storper, E. Shmits, M.Enrayt kabi olimlarning mazkur yo‘nalishdagi ilmiy konsepsiyalari, nazariy qarashlari va amaliy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan³. Ushbu olimlarning nazariy va uslubiy yondashuvlarida investitsion muhitni takomillashtirish, jalb etilgan investitsiyalarni samarali boshqarish va ulardan foydalanish natijadorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, ularning ilmiy izlanishlarida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional, iqtisodiy, tashkiliy va funksional asoslarini takomillashtirish hamda investitsiya jarayonlarini samarali boshqarish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi.

MDH davlatlarida zamonaviy investitsion boshqaruv nazariyalarini tadqiq qilish orqali investitsiyalar samaradorligini oshirish yo‘nalishlariga oid izlanish jarayonining an’anaviy davlat investitsiya siyosatini o‘rganishdan – davlat investitsion menejmenti, davlat investitsion xavfsizligini ta’minlash, davlatning samarali investitsion o‘sishi borasidagi zamonaviy fanlarga o‘tish bosqichida turganligini tasdiqlaydi. Bularga misol tariqasida O.A.Biyakov, A.G.Granberg, Yu.A.Gadjiev, S.M.Drobishevskiy, V.K.Lomakin, Ya.D.Lisovolik, G.L.Azoev, B.S.Jixarevich, R.Fatxutdinov, Yu.V.Savelev, Ye.A.Kolomak, A.S.Novoselov, S.S.Artobolevskiy, B.M.Grinchel kabi olimlarning izlanishlarini keltirish mumkin⁴.

³ B.Garret Investigation into federally insured banks.Hearings, Eighty-ninth Congress, first session, pursuant to Senate resolution 54, 89th Congress. — Washington,1965.231-p.; Gereffi G., Humphrey J., Sturgeon T. The governance of global value chains, *Review of International Political Economy*, 2005, № 12 (1), February, p. 83; Kaplinsky R. Global Value Chains: Where They Came From, Where They Are Going and Why This Is Important // *Innovation, Knowledge, Development Working Papers*, 2013, no. 68; M.Lorens. Financing Growth. SMEs in Global Value Chains. The case for a coordinated G20 policy approach, Paris, 2016; Maskell, P., Kebir, L. What qualifies as a cluster theory? // Asheim, B., Cooke P., Martin R. (Eds.). *Clusters and regional development: Critical reflections and explorations*. New York: Routledge, 2006. p.30-49; Rosenfeld S.A. Bringing Business Clusters into the Mainstream of Economic Development // *European Planning Studies*, Nr. 5, 1997. – pp. 3-23; М.Симагути Эпоха системных инноваций. “Бизнес по-японски”. Пер.с японского. М.: Миракл, 2006-248с.; Storper M. Globalization, localization and trade // *The Oxford Handbook of Economic Geography*. - Oxford: Oxford University Press. - 2002. - P. 1 - 31. - Режим доступа: www.lse.ac.uk/.../pdf/GlobLocalization.pdf; Schmitz H. On the clustering of small firms // *IDS Bulletin*. 1992. Vol.23, No.3; Enright, M. J. Survey on the Characterization of Regional Clusters: Initial Results. - Working Paper, Institute of Economic Policy and Business Strategy: Competitiveness Program, University of Hong Kong, Sun Hung Kai, 2000. -21 p. - Режим доступа: http://www.paca-online.org/cop/docs/Michael_Enright__Survey_on_the_characterization_of_regional_clusters.pdf.

⁴ Бияков О.А. Региональное экономическое пространство: измерение использования потенциала. Автореф. дис. д-ра экон. наук. Кемерово, 2005. -42с; Гранберг А.Г. О программе фундаментальных исследований пространственного развития России. //Регион: экономика и социология, №2, 2009 г. С. 166-178; Гаджиев Ю.А. Зарубежные теории регионального экономического роста и развития // *Экономика региона*, выпуск 2-й, 2009 г., с.45-62; Ломакин В.К. Мировая экономика. Учебник / 4-е изд. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012 г. – 671 с.; Лисоволик Я.Д. Глобализация: от Великого шелкового пути до ВТО // *Российский журнал*, 12 января 2007 г.; Азоев Г.Л. Конкуренция: анализ, стратегия и практика. – М.: Центр экономики и маркетинга, 1996 г. – 208 с.; Жихаревич Б.С., Лимонов Л.Э., Жунда Н.Б. и др. Региональная экономика и пространственное

O'zbekistonda investitsion muhitning shakllanishi hamda investitsion muhit boshqaruvini takomillashtirish yo'nalishlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish nisbatan yangi yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda investitsion muhitni shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslari, unga ta'sir etuvchi omillar, investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish, shuningdek, investitsion jarayonlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy investitsion siyosat va mintaqaviy iqtisodiyot yo'nalishida tadqiqotlar olib borgan Sh.I. Mustafaqulov, N.R.Rajabov, N.Q.Yo'ldashev, Sh.A.Allayarov, B.B.Ochilov, J.R. Hoshimov, J.I.Butayev, D.G'ozibekov, A.V.Vaxabov, N.Haydarov, B.B. Berkinov, Sh.N.Zaynutdinov, G.A.Samatov, O.B.G'aybullayev, N.O.Raxmatullayeva va boshqa⁵ olimlarning ilmiy izlanishlarida investitsion muhitning shakllanishi, investitsion muhit boshqaruvini takomillashtirish, strategik menejment yo'nalishlarini hamda hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Mazkur olimlar tomonidan erishilgan ilmiy natijalar O'zbekistonda investitsion muhitning shakllanishi va rivojlanishi hamda uni samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi investitsion muhitni boshqarishning mavjud holatini tahlil qilish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- investitsiyalarning mohiyati, tarkibi va baholash mezonlarini tadqiq etish;
- investitsion muhitning shakllanishi va ularni boshqarishning zarurligi, vazifalari hamda yo'nalishlarini o'rganish;
- investitsion muhitni samarali boshqarishga oid xorij tajribalarini o'rganish;
- investitsion muhitning shakllanishi va ularni boshqarishning uslubiy masalalari tahlilini amalga oshirish;
- transformatsiyalashuv sharoitida Qashqadaryo viloyatiga kiritilgan investitsiyalar va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;

развитие. Учебник в 2-х томах. – М.: Юрайт, 2014 г.; Фатхутдинов Р. Глобальная конкурентоспособность: монография. – М.: РИА Стандарты и качество, 2009 г. – 464 с.; Савельев Ю.В. Управление конкурентоспособностью региона: от теории к практике. – Петрозаводск: КарНЦ РАН, 2010 г. – 516 с.; Гринчель Б.М. Повышение конкурентоспособности территорий как обобщающая задача стратегического планирования. – СПб., 2007 г. – 120 с.

⁵ Мустафакулов Ш.И. Инвестицион мухит жозибадорлиги. Т.:2017; Rajabov N. Investitsion muhit jozibadorligini ta'minlash va samarali boshqarish yo'nalishlari. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 15 b; G'ozibekov D.G'., Nosirov E. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007. – 92 b; O.B. G'aybullayev Investitsion salohiyatni shakllantirish va samarali boshqarish yo'nalishlari. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati; Yo'ldoshev N.Q. "Strategik menejment". – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2019. – 122 b; Teshabayev T., Allayarov Sh., Aliyeva N. — "Tizimli menejment" Toshkent: Diadema nur servis, 2023. — 220 b,

iqtisodiyotning o'sish nuqtalari orqali investitsion muhit jozibadorligini tahlilini amalga oshirish;

yashil investitsion muhitni boshqarishni takomillashtirish yo'nalishlarini tadqiq etish;

investitsion muhitni samarali boshqarishning asosiy yo'nalish va istiqbollari ilmiy asoslash;

investitsion muhitni samarali boshqarishda innovatsion omil ta'sirchanligini oshirishning prognozlash masalalarini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati korxonalari maydonga chiqadi.

Tadqiqotning predmetini investitsion muhit boshqaruvini takomillashtirish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy izlanish jarayonida guruhlash, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, regression tahlil, SWOT-tahlil, tizimli tahlil va sintez, statistik va ekspert baholash kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "Investitsiyalarni samarali boshqarish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni investitsiya resurslarini to'g'ri rejalashtirish, joylashtirish, nazorat qilish va ulardan maksimal iqtisodiy samaraga erishish maqsadida foydalanishni ta'minlaydigan kompleks boshqaruv jarayoni tizimli va integratsiyali yondashuv asosida takomillashtirilgan;

investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha kiritilayotgan investitsiyalar samaradorligini aniqlash uslubini ishlab chiqish asosida Qashqadaryo viloyati tumanlarining investitsiya salohiyatining "yuqori" (A=10 ball), "o'rta" (B=7 ball) va "past" (C=4 ball) qiymatlari aniqlangan;

hududlarda yashil investitsion muhit jozibadorligini integral baholash uslubi hududlar investitsion muhitining "barqaror rivojlanayotgan" (70-100 ball), "o'tish bosqichida" (40-70 ball), "riskli" (0-40 ball) mezon qiymatlarida guruhlash orqali tabaqalashgan yondashuv asosida takomillashtirilgan;

Qashqadaryo viloyati bo'yicha yashil investitsion muhit shakllanishi va ularni boshqarishni takomillashtirish ko'p omilli korrelyatsion modellar asosida investitsiyalar samaradorligini oshirishning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

davlatning investitsiya siyosati, hududiy iqtisodiyot va mintaqaviy rivojlanish dasturlari ijrosi amaliyotining jahondagi ilg'or tajribalari hamda bu borada O'zbekistondagi mavjud imkoniyatlarning tadqiqi asosida investitsiyalarni samarali boshqarishning zarurligi va ahamiyati asoslangan;

investitsion salohiyati shakllanishi amaldagi mexanizmi tahlili asosida uning zaif jihatlari aniqlangan hamda uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

transformatsiyalashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasida turli omillarning o'zaro aloqadorligini tadqiq etishning yangi konseptual sxemasi asosida hudud investitsion salohiyatini samarali boshqarishning o'rta va uzoq muddatli vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan kompleks tadbirlari tizimi taklif etilgan;

Qashqadaryo viloyatida yashil investitsion muhitning shakllanishi va uni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ko'p omilli korrelyatsion modellar asosida 2030-yilgacha investitsiyalar samaradorligini oshirishning prognoz ko'rsatkichlari shakllantirildi. Mazkur prognoz natijalari hududda yashil investitsiyalarni jalb etish, investitsion resurslarni ustuvor yo'nalishlarga samarali taqsimlash, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda investitsion siyosatning strategik yo'nalishlarini belgilashda amaliy vosita sifatida foydalanish imkonini beradi.

Olingan natijalarning ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan yondoshuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati investitsion muhitni hududiy darajada shakllantirish va boshqarishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, unga ta'sir etuvchi iqtisodiy, institutsional, infratuzilmaviy va moliyaviy omillarni tizimlashtirish hamda ularni kompleks baholash yondashuvlarini rivojlantirish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Qashqadaryo viloyatida investitsion muhitni baholash va investitsion muhit boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalarning ishlab chiqishda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida "Menejment", "Innovatsion menejment", "Investitsiyalarni boshqarish" fanlaridan ma'ruza matni, o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Investitsion muhit boshqaruvini takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "Investitsiyalarni samarali boshqarish" tushunchasi investitsiya resurslarini to'g'ri rejalashtirish, joylashtirish, nazorat qilish va ulardan maksimal iqtisodiy samaraga erishish maqsadida foydalanishni ta'minlaydigan kompleks boshqaruv jarayoni sifatida takomillashtirilgan, undan oliy o'quv yurti talabalari uchun mo'ljallangan "Savdo faoliyatini tashkil etish" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2025-yil 22-oktabrdagi 422-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida oliy o'quv yurti talabalari va bo'lg'usi mutaxassislarda investitsiyalarni samarali boshqarish va iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish, investitsiyalarni samarali boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda nazariy hamda amaliy bilimlarni yanada chuqurlashtirishga yangi bilimlar va ko'nikmalarning shakllanishiga imkon yaratilgan;

investitsion muhitni boshqarish bo'yicha kiritilayotgan investitsiyalar samaradorligini aniqlash uslubini ishlab chiqish asosida Qashqadaryo viloyati tumanlarining investitsiya salohiyatining yuqori (A=10 ball), o'rta (B=7 ball) va past (C=4 ball) qiymatlari aniqlangan taklifi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi

faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 22-maydagi № 01-06-30-5092-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etilishi natijasida faoliyat yuritayotgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarning direksiya bilan hamkorlikdagi shartnomani uzaytirish haqida qo'shimcha arizalari soni 2025-yilning 4-choragida 17 foizga oshgan;

hududlarda yashil investitsion muhit jozibadorligini integral baholash uslubi hududlar investitsion muhitining "barqaror rivojlanayotgan" (70-100 ball), "o'tish bosqichida" (40-70 ball), "riskli" (0-40 ball) mezon qiymatlarida guruhlash orqali tabaqalashgan yondashuv asosida taklifi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi faoliyatiga joriy qilingan. Mazkur tadbirlar kompleksini amaliyotga joriy etilishi natijasida 2025-yilning 4-choragida Qashqadaryo viloyatidagi potensial va istiqbolli investorlar o'rtasida sog'lom raqobatning o'sishiga erishilgan hamda potensial va istiqbolli investorlarning raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari 19 foizga yaxshilanishi asosida ularning yangi ish o'rinlari yaratishdagi ishtiroki 8,6 foizga, o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ishtiroki 17,2 foizga oshgan;

investitsion muhitni shakllanishi va ularni boshqarishni takomillashtirishda ko'p omilli korrelyatsion modellari asosida ishlab chiqilgan investitsiyalar samaradorligini oshirishining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Savdo-sanoat palatasida foydalanilgan. Ushbu taklifda ko'p omilli korrelyatsion modellari asosida investitsion muhitni shakllanishi va ularni boshqarishni takomillashtirishda uzoq muddatli vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan kompleks tadbirlari tizimi ishlab chiqilgan. Mazkur taklif sanoati taraqqiyotining 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, milliy OAK e'tirof etgan jurnallarda 3 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda 4 ta, shuningdek, respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda 3 ta ma'ruza va tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, qismi to'qqizta paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy ishlar rejaları bilan aloqadorligi aniqlangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiqi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **"Investitsion muhitning shakllanishi va uni boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida investitsiyalarning mohiyati, tarkibi va baholash mezonlari, investitsion muhitning

shakllanishi va ularni boshqarishning zarurligi hamda investitsion muhitni samarali boshqarishga oid xorij tajribalari batafsil o‘rganilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsion salohiyat sifatida turli tushunchalar talqin qilinmoqda (1-jadval).

1-jadval

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsion salohiyat sifatida talqin etilgan tushunchalar⁶

t/r	Investitsion salohiyat sifatida talqin etilgan tushunchalar	Mualliflar	Adabiyotlar manbasi
Xorijiy iqtisodchi-olimlar va ilmiy muassasalar qarashlari			
1.	Investitsion salohiyat – avvalambor, mavjud biznes muhitini baholaydigan, investitsiya kiritish istagida yoki hamkorlikning boshqa shakli uchun maqbul makonni tanlashning muhim mezon	Dj.D. Deniels va Li.X.Radeba	Deniels Dj.D., Radeba L.X. Mejdunarodniy biznes: vneshnyaya sreda i delovie operatsii. 4-ye. izd. – M.: Delo LTD, 2014. 438s.
2.	Investitsion salohiyat – investitsiyalar samaradorligiga ta’sir ko’rsatuvchi iqtisodiy, moliyaviy va boshqa sharoitlar yordamida ulardan maksimal darajada foydalana olish qobiliyatidir	Dj. Douns va G. Elliot	Douns Dj., Gudman Dj. E. Finansovo-investitsionniy slovar. 3-ye izd. M.: Infra –M, 2017. – 255s.
3.	Investitsion salohiyat – investitsiyalardan foydalanishning imkoniyatlarini baholovchi, amalda foydalanilayotgan va o’zlashtirilishi samara berishi kutilayotgan moliyaviy mahsulotlar	Gitman L., Djonk M.	Osnovi investirovaniya. Per.s ang.–5-izd. M.: Delo, 2016. s.642
4.	Investitsion muhit va investitsion salohiyat tushunchalarini farqlash lozimligini ta’kidlashgan va uni asoslovchi omillarni keltirishgan	Taraqqiyot tadqiqotlari Instituti (IDS) vakillari M. Mur va X. Shmits	Moore M., Schmitz H. Idealism, realism and the investment climate in developing countries – Sussex: Institute of Development Studies, 2016 – r.22
5.	Investitsion muhit, investitsion iqlim, biznes muhiti tushunchalari investitsion salohiyatga sinonim tushunchalardir	Sivakova S.Yu.	Sivakova S.Yu. Formirovanie investitsionnogo klimata s selyu privilecheniya inostrannix investitsiy - Sankt-Peterburg, 2014 – s. 22.
O‘zbek iqtisodchi-olimlari qarashlari			
6.	Investorlar uchun yaratilgan, kafolatlangan shart-sharoitlar va imkoniyatlarning mavjudligining asoslari majmui	D. G‘ozibekov	G‘ozibekov D. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: Moliya, 2003 – 67-b.
7.	Mamlakatning xo‘jalik rivojlanish sharoitlarini tavsiflovchi va undagi investitsion faollikning shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko’rsatadigan obyektiv ijtimoiy-iktisodiy, tabiiy-geografik va ekologik ko’rsatkichlarning umumiy darajasi	Sh.Mustafakulov	Mustafaqulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. T.: Baktria press, 2017 – 18-b.
8.	Milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirishda investitsion salohiyatni oshirish bevosita faol investitsiya siyosatini yurgizishni talab etadi	Mualliflar jamoasi: B.Salimov, I.Xotamov umumiy tahriri ostida	“Investitsiyaviy faollik: tahlil va imkoniyatlar”.TDIU koll.monogr. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019, 93-b.

⁶ Izlanishlar davomida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tadqiqot doirasida investitsiya tushunchasining evolyutsiyasini, uning iqtisodiy mazmun-mohiyati va tarixiy rivojlanish bosqichlarini yoritishga harakat qilamiz (2-jadval).

2-jadval

Investitsiya tushunchasining evolyutsiyasi⁷

Bosqichlar	Asosiy xususiyati	Mohiyati	Olimlar
<i>1-bosqich:</i> An'anaviy yondashuv. XX asr boshlarigacha	Investitsiyalar asosan kapitalni joylashtirish sifatida qaralgan	Foyda olish uchun mablag'ni joylashtirish	Klassik iqtisodchilar Adam Smith va b.: investitsiya – kelajak daromad olish uchun kapital sarflash
<i>2-bosqich:</i> Moliyaviy boshqaruv shakllanishi. 1930–1950-yillar	Risk va daromad tushunchasi paydo bo'ldi	Investitsiya risk va daromad o'rtasidagi muvozanat sifatida qaraldi	J.Keyns: investitsiya – kapital qo'yilmalar orqali daromad olish jarayoni
<i>3-bosqich:</i> Portfel nazariyasi. 1950–1970-yillar	Diversifikatsiya, riskni kamaytirish	Investitsiyalarni portfel asosida boshqarish	H.Markowitz: optimal portfel orqali riskni minimallashtirish
<i>4-bosqich:</i> Strategik boshqaruv. 1970–1990-yillar	Uzoq muddatli rejalashtirish	Investitsiya strategik rivojlanish vositasi	M.Porter: investitsiyalar raqobat ustunligini ta'minlaydi
<i>5-bosqich:</i> Innovatsion yondashuv. 1990–2010-yillar	Innovatsiya va texnologiyalar muhimlashdi	Investitsiya innovatsion rivojlanishga xizmat qiladi	P.Drucker: investitsiya – kelajak imkoniyatlariga yo'naltirilgan resurs
<i>6-bosqich:</i> Barqaror rivojlanish davri. 2010-yildan hozirgacha	Ekologiya, ijtimoiy mas'uliyat	Investitsiya nafaqat foyda, balki barqarorlikni ta'minlaydi	Robert G. Eccles, Aswath Damodaran: ESG (Environmental, Social, Governance) asosidagi boshqaruv

Mazkur 2-jadvalda investitsiya tushunchasining iqtisodiy fanlar rivojlanishi jarayonida qanday bosqichma-bosqich evolyutsiya qilganini yoritib beradi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, investitsiya kategoriyasi dastlab sodda kapital qo'yilmasi sifatida talqin qilingan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan u murakkab iqtisodiy, moliyaviy, strategik va innovatsion tizimga aylangan.

Turli iqtisodchi olimlar bu tushunchaga o'z davri va ilmiy maktabi nuqtayi nazaridan yondashganlar. Masalan, klassik iqtisodiy qarashlarda investitsiyalarni samarali boshqarish asosan kapitalning ishlab chiqarish jarayonida maksimal darajada unumli foydalanilishi bilan bog'langan bo'lsa, keyinchalik neoklassik yondashuvda bu jarayon risk va daromad o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash orqali izohlangan. J.Keynsning makroiqtisodiy yondashuvi esa investitsiya boshqaruvini iqtisodiy faollik va bandlik darajasiga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida talqin qiladi (3-jadval).

⁷ Izlanishlar davomida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

“Investitsiyalarni samarali boshqarish” tushunchasiga turli iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan yondashuvlar⁸

Olimlar	Ta’rif (qisqacha mazmuni)	Ma’nosi	Kamchiliklari
John Maynard Keynes	Investitsiyalarni samarali boshqarish — kapital qo’yilmalarni umumiy talab va iqtisodiy o’sishga mos ravishda tartibga solish	Investitsiyalarga iqtisodiy barqarorlik va bandlikni ta’minlash vositasi sifatida qaraladi	Mikrodarajadagi boshqaruv jihatlari yetarli yoritilmagan
Irving Fisher	Investitsiyalarni boshqarish — vaqt va daromad o’rtasidagi optimal muvozanatni ta’minlash	Foiz stavkasi va vaqt omili asosida kapital samaradorligini oshirish	Ijtimoiy va institutsional omillar hisobga olinmagan
Harry Markowitz	Investitsiyalarni samarali boshqarish — risk va daromad nisbatini optimallashtirish	Diversifikatsiya orqali riskni kamaytirish va foydani oshirish	Real bozor sharoitlarida model murakkab
William Sharpe	Investitsiyalarni boshqarish — aktivlar bahosini risk darajasiga qarab aniqlash va optimal portfel tuzish	Kapital aktivlarni baholash modeli orqali investitsiya qarorlarini asoslash	Bozorning mukammal ishlashi faraz qilinadi
Peter Drucker	Investitsiyalarni samarali boshqarish — resurslarni eng yuqori natija beradigan sohalarga yo’naltirish	Menejment nuqtayi nazaridan samaradorlik va natijadorlikka urg’u beradi	Moliyaviy risklar chuqur tahlil qilinmagan
Michael Porter	Investitsiyalarni boshqarish — raqobat ustunligini ta’minlaydigan sohalarga kapitalni joylashtirish	Strategik rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi	Qisqa muddatli moliyaviy samaradorlik kam yoritilgan

Mazkur jadvalda investitsiyalarni samarali boshqarish tushunchasiga turli iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan yondashuvlar, ularning mazmuni hamda har bir nazariyaning cheklovlari tahlil qilingan. Umumiy jihatdan qaraganda, bu yondashuvlar investitsiya boshqaruvining evolyutsiyasini klassik makroiqtisodiy qarashlardan boshlab zamonaviy strategik va moliyaviy modellargacha bosqichma-bosqich kengayib borganini ko’rsatadi. Bizning fikrimizcha esa, Investitsiyalarni samarali boshqarish uchun investitsiya resurslarini to’g’ri rejalashtirish, joylashtirish, nazorat qilish va ulardan maksimal iqtisodiy samaraga erishish maqsadida foydalanishni ta’minlaydigan kompleks boshqaruv jarayoni sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Ma’lumki, investitsiyalarni jalb qilish barcha davlatlar uchun muhim vazifa bo’lib hisoblanadi, chunki kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tashkil etish, rivojlanishning strategik dasturlarini amalga oshirish, yangi bozorlarni egallash qo’shimcha mablag’ qo’yilmalarini talab etadi. Keyingi yillarda O’zbekistonda ham, investitsiyalarni boshqarish samaradorligini oshirish bo’yicha asosiy muammoli savollar paydo bo’lmoqda. Tadqiqot davomida investitsiyalarni boshqarish samaradorligini oshirishda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlab, ularga ishlab chiqilgan yechimlar taklif qilindi (4-jadval).

⁸ Izlanishlar davomida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**O‘zbekistonda investitsiyalarni boshqarish samaradorligini oshirish
bo‘yicha asosiy muammolar va takliflar⁹**

Muammo	Yuzaga kelish sababi	Yechim va takliflar
1. Investitsiya muhitining barqaror emasligi	Qonunchilikdagi tez-tez o‘zgarishlar, byurokratiya	Barqaror va prognoz qilinadigan tartiblarni joriy etish
2. Xorijiy investorlar uchun xavf omillari	Moliyaviy, valyuta risklari, sud-huquq tizimining zaifligi	Investitsiya kafolatlari, xalqaro arbitraj mexanizmlarini kuchaytirish
3. Mahalliy loyihalarning kam rentabelligi	Loiyhalar ustida tahlil va monitoring tizimining sustligi	Baholashning zamonaviy (NPV, IRR) metodlarini joriy etish
4. Moliyalashtirishga kirish qiyinligi	Bank kreditlari shartlarining qattiqligi	Investitsion fondlar, grantlar, ventur kapital tizimini rivojlantirish
5. Davlat-xususiy sheriklik sust rivojlanmoqda	Normativ-huquqiy mexanizmlarning to‘liq shakllanmaganligi	DXShga oid qonunchilikni takomillashtirish va pilot loyihalarni ko‘paytirish

Jadvalda keltirilgan muammolarni bartaraf etish uchun investitsion faoliyatning huquqiy barqarorligini ta‘minlash, zamonaviy loyiha baholash va monitoring mexanizmlarini joriy etish, muqobil moliyalashtirish manbalarini kengaytirish hamda DXSh mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Bu choralar investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish va mamlakatning investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Investitsion muhitni boshqarishning hozirgi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida investitsion muhitning shakllanishi va ularni boshqarishning uslubiy masalalari tahlili, Qashqadaryo viloyatiga kiritilgan investitsiyalar va ulardan foydalanish samaradorligi tahlili, iqtisodiyotning o‘shish nuqtalarining investitsiyon muhit jozibadorligini ekonometrik baholash masalalari atroficha yoritilgan. Transformatsiyalashuv sharoitida iqtisodiyotning o‘shish nuqtalarining investitsiyalar shakllanishidagi ishtiroki va investitsion jozibadorligini baholash imkoniyatlari aniqlangan.

O‘zbekistonda so‘nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli 2,3 barobarga ko‘paydi, ayniqsa 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 137,6 trln so‘mga ko‘p investitsiyalar o‘zlashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o‘shish sur‘atlari dinamikasi, (2020-2025-y.y.)¹⁰

Yillar	Hajmi, trln so‘m	O‘shish sur‘ati, %da
2020	210,2	95,6
2021	239,6	102,9
2022	266,2	100,2
2023	356,1	123,4
2024	507,5	131,3
2025	591,1	110,5

⁹ Izlanishlar davomida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi 5-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2020–2025-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi.

Quyidagi jadval O'zbekiston va uning hududlarida korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalari hajmini (mln so'mda) ko'rsatadi. Jadval orqali korxonalar tomonidan amalga oshirilgan ichki sarmoyalarni tahlil qilish, hududlar kesimida o'z mablag'lari bilan amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi va o'sish sur'atlarini aniqlash mumkin (6-jadval).

Umuman olganda, respublika bo'yicha investitsiyalar hajmi 2018-yildagi 37,9 trln so'mdan 2025-yilda 90,8 trln so'mga yetgan. Natijada, investitsiyalar hajmi sakkiz yil davomida qariyb 2,4 baravarga oshgan. Ayniqsa, 2020-yilda investitsiyalar hajmining keskin ortib, 66,8 trln so'mga yetishi iqtisodiyotga yirik investitsiya loyihalari jalb etilganligi bilan izohlanadi. Keyingi yillarda ham investitsion faollik yuqori darajada saqlanib qolib, 2025-yilda rekord darajadagi ko'rsatkich qayd etilgan.

6-jadval


Korxonaning o'z mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, (mln so'mda)¹¹

Hududlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
O'zbekiston Respublikasi	37944770,4	41718959,7	66848505,9	68359672,1	80844565,9	83314713,7	84815037,3	90752089,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1822702,5	2107627,9	1936053,9	2272048,2	2701898,2	2398285,3	2434865,7	2556609,0
Andijon viloyati	1121178,8	1673430,9	2595618,3	2582115,3	3308189,6	2510556,5	2491558,6	2641052,1
Buxoro viloyati	2130229,4	1802563,4	3075446,1	4414333,3	4674815,5	3802345,1	4032740,9	4315032,8
Jizzax viloyati	987534,7	1195446,7	1920633	2176855,8	2568560,1	1524390,1	3085349,8	3301324,3
Qashqadaryo viloyati	4150751,8	4043355,2	2693912,2	3598982	3690413	3948891,1	5045576,2	5398766,5
Navoiy viloyati	3150019,3	1768672,4	2868460,2	2837032,2	5023342,3	5161515,5	2861047,7	3061321,0
Namangan viloyati	1404467,2	2257692,1	3194989,6	2835906,9	3339538,1	4921475	4503508,5	4818754,1
Samarqand viloyati	2201698,6	2252235	6039895,6	4443458,4	4590907,2	7859346,6	6786007,4	7261027,9
Surxondaryo viloyati	1542649,8	912040,3	1075710,6	1884573,6	1933818,3	1277289,2	1977698,7	2096359,9
Sirdaryo viloyati	757957,2	977930,4	1939799,3	1334214,9	1114891,8	1692021,2	1671378,9	1754947,8
Toshkent viloyati	4641960,7	6470258,1	9118191,7	10268924,9	13829611,3	10704786,6	11489187	12293430,1
Farg'ona viloyati	1542402,7	1865100,4	3326590,7	3545417,4	3732866,1	3667697,4	3212142	3436991,9
Xorazm viloyati	747525,5	813874,5	1105593,4	1990775,8	1984832,5	2511754,9	1704686,3	1798464,0
Toshkent shahri	11743692,3	13578732,5	25803257,1	23969042,1	27997178,1	30870278,2	33268324	35929789,9

Hududlar kesimida investitsiyalar hajmi bo'yicha mutlaq yetakchi o'rin Toshkent shahriga tegishlidir. Toshkent shahrida investitsiyalar hajmi 2018-yildagi 11,7 trln so'mdan 2025-yilda 35,9 trln so'mga yetgan. Bu esa mazkur davrda investitsiyalar hajmi uch baravardan ortiq oshganligini ko'rsatadi. Toshkent shahri mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy markazi sifatida yirik sanoat, xizmat ko'rsatish va infratuzilma loyihalarining asosiy qismi jamlangan hudud hisoblanadi. Shu sababli investitsiyalarning katta ulushi aynan ushbu hududga to'g'ri kelmoqda.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

O'zbekiston bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar sakkizta davlat hissasi yuqori. Endi esa yuqori ulushga ega ushbu 8 ta mamlakat bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarni o'rganamiz (1-rasm).



1-rasm. Yuqori ulushga ega 8 ta mamlakat bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar (O'zbekiston bo'yicha jami hajmga nisbatan, %da 2024-yil)¹²


2024-yil yanvar-dekabr davrida O'zbekistonning asosiy kapitaliga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi bo'yicha eng yuqori ulushga ega sakkizta investor-mamlakat aniqlangan. Eng yirik sarmoya kirituvchi davlatlar qatorida Xitoy yetakchilik qiladi, uning hissasi jami xorijiy investitsiyalarning taxminan 27,9%ni tashkil etadi. Rossiya va Turkiya ham muhim rol o'ynab, tegishlicha 13,2 % va 6,8 % hissaga ega.

Shuningdek, Germaniya (5,2 %), Saudiya Arabistoni (5,0 %) va Niderlandiya (4,0 %) O'zbekistonning strategik va iqtisodiy hamkorlikdagi asosiy davlatlari sifatida e'tiborga loyiq. BAA va Buyuk Britaniya esa investitsiyalarning tegishlicha 3,9 % va 3,7 % qismini tashkil etgan.

Bu ma'lumotlar O'zbekiston iqtisodiyoti uchun xorijiy sarmoyaning diversifikatsiyalanganligini, shuningdek, hududiy va tarmoqlar kesimida kapital jalb qilishdagi ustuvor yo'nalishlarni ko'rsatadi. Xorijiy investitsiyalar hajmining yuqori ulushi nafaqat iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi, balki davlatning sarmoya jozibadorligini oshirish va barqaror iqtisodiy siyosatni amalga oshirish imkonini ham bergan.

¹² O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Investitsion jozibadorlikni aniqlashda faqat iqtisodiyotning o'sish nuqtalarini rivojlantirish kifoya qilmaydi. Investorlar qaror qabul qilishda turli omillarni – iqtisodiy samaradorlik, infratuzilma, institutsional muhit, bozor salohiyati va risk darajasi – kompleks tarzda baholashadi. Ushbu omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, investitsiya loyihalarining muvaffaqiyati va xavfsizligini belgilaydi. Shu sababli, iqtisodiyotning o'sish nuqtalarining investitsion jozibadorligini tizimli ko'rsatish muhimdir. Quyidagi chizmada investitsion jozibadorlikni baholashning asosiy omillari tasvirlangan.



2-rasm. Investitsion jozibadorlikni baholash omillari¹³

Ushbu rasm iqtisodiyotning asosiy o'sish nuqtalari o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritishini ko'rsatadi. Bir tarmoqning rivojlanishi boshqa sohalarining ham rivojlanishiga turtki beradi va umumiy iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

2-rasm – “Investitsion jozibadorlikni baholash omillari” investorlar qaror qabul qilishida muhim bo'lgan asosiy mezonlarni tizimli ko'rsatadi. Rasmdan ko'rinib turibdiki, investitsion jozibadorlik bir nechta o'zaro bog'liq omillarga – iqtisodiy samaradorlik, infratuzilma rivojlanishi, institutsional muhit, bozor salohiyati va risk darajasiga bog'liq. Iqtisodiy samaradorlik yuqori bo'lgan tarmoqlar investitsiyalarni jalb qilishda ustunlikka ega; infratuzilma va institutsional qo'llab-quvvatlash esa loyihalarni amalga oshirishni osonlashtiradi. Bozor salohiyati va risk darajasi esa investorlar uchun xavf va foyda nisbatini belgilaydi. Shu tariqa, chizma investitsion qarorlar qabul qilishda kompleks yondashuv zarurligini va tarmoqlar salohiyatini baholashni vizual tarzda ko'rish imkonini bergan.

Tadqiqot davomida biz tomonimizdan investitsion muhitni boshqarish bo'yicha kiritilayotgan investitsiyalar samaradorligini aniqlash uslubini ishlab chiqish asosida investitsion salohiyatining yuqori (A=10 ball), o'rta (B=7 ball) va past (C=4 ball) qiymatlari aniqlandi.

Investitsion muhitni boshqarishda asosiy maqsad — kiritilayotgan investitsiyalarning samaradorligini aniqlash va resurslarni optimal taqsimlash. Shundan kelib chiqib Qashqadaryo viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi o'sishini tahlil qilamiz (7-jadval).

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

7-jadval

**2021–2025-yillarda Qashqadaryo viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan
investitsiyalar hajmining o'sishi, (foizda)¹⁴**

Hududlar	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.	2025y.
Viloyat bo'yicha	105,7	144,1	107,4	188,0	133,4
Chiroqchi tumani	179,2	197,4	86,3	166,7	145,7
Dehqonobod tumani	95,6	148,2	206,8	317,7	171,2
G'uzor tumani	122,1	125,9	134,6	189,9	137,2
Qamashi tumani	98,1	98,2	98,6	118,2	132,2
Qarshi shahri	95,2	101,8	122	109,8	109,9
Qarshi tumani	93,2	102,2	58,2	115,7	119,3
Koson tumani	94,6	94,9	112,3	122,2	119,5
Kasbi tumani	95,1	42,3	134,6	81,1	103,9
Kitob tumani	90,3	170	170,4	211,5	144,2
Mirishkor tumani	97,8	91,6	91,9	108,7	119,1
Muborak tumani	98,2	102,2	58,2	115,7	119,3
Nishon tumani	94,6	94,9	112,3	122,2	119,5
Shahrisabz shahri	97,1	99,3	134,6	81,1	103,9
Shahrisabz tumani	99,3	170	170,4	211,5	144,2
Yakkabog' tumani	98,8	91,6	91,9	108,7	119,1
Ko'kdala tumani	147,2	168,4	112,3	154,7	151,7
Taqsimlanmaydigan hajmi	5,8	7,9	11,8	0,0	0,0

Berilgan jadval Qashqadaryo viloyatida 2021–2025-yillar davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'sish sur'atlarini aks ettiradi va hududiy rivojlanishdagi muhim tendensiyalarni ko'rsatadi.

8-jadval

**2021–2025-yillarda Qashqadaryo viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan
investitsiyalar, jamiga nisbatan ulushi, (foizda)¹⁵**

Hududlar	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.	2025y.
Viloyat bo'yicha	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Chiroqchi tumani	30,0	48,0	44,0	26,3	16,2
Dehqonobod tumani	6,9	7,2	14,8	25,3	25,7
G'uzor tumani	0,9	1,0	1,1	1,2	1,3
Qamashi tumani	2,8	2,0	1,4	0,9	1,1
Qarshi shahri	5,3	3,8	5,2	3,1	3,1
Qarshi tumani	5,2	3,4	1,5	0,5	0,4
Koson tumani	2,4	1,6	2,1	1,4	1,2
Kasbi tumani	1,9	0,6	0,9	0,4	0,4
Kitob tumani	3,8	4,6	7,7	8,7	8,1
Mirishkor tumani	6,6	4,3	4,4	2,6	2,8
Muborak tumani	1,8	1,9	1,6	1,9	1,8
Nishon tumani	1,2	1,2	1,3	1,3	1,4
Shahrisabz shahri	0,8	0,9	1,1	0,7	0,9
Shahrisabz tumani	11,0	11,6	11,9	14,1	14,2
Yakkabog' tumani	1,2	1,5	1,6	1,5	1,7
Ko'kdala tumani	14,0	7,1	10,7	10,6	10,0
Taqsimlanmaydigan hajmi	3,0	0,3	0,03	0,0	0,0

¹⁴ Tadqiqotlar davomida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁵ Tadqiqotlar davomida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi jadval Qashqadaryo viloyatida 2021–2025-yillar davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hududlar kesimida jami hajmdagi ulushi taqsimotini aks ettiradi. Ushbu ko‘rsatkich investitsiyalarning qaysi hududlarda ko‘proq jamlanganini aniqlash imkonini beradi. Avvalo, viloyat bo‘yicha jami ulush har yili 100 foizni tashkil etib, bu tabiiy holat sifatida barcha hududlar kesimidagi taqsimotni ifodalaydi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalar viloyat bo‘ylab juda notekis taqsimlangan bo‘lib, ayrim tumanlar ulushning asosiy qismini egallagan.

Eng katta ulush dastlabki yillarda Chiroqchi tumaniga to‘g‘ri keladi. 2021-yilda 30,0 foiz va 2022-yilda 48,0 foiz ko‘rsatkichlar qayd etilib, bu hudud viloyat investitsiyalarining deyarli yarmiga yaqin qismini jalb qilgan. Biroq keyingi yillarda uning ulushi keskin kamayib, 2025-yilga kelib 16,2 foizga tushgan. Bu holat investitsiya oqimining boshqa hududlarga qayta taqsimlanganini ko‘rsatadi.

Dehqonobod tumani esa aksincha, yildan-yilga o‘sib borayotgan ulush bilan ajralib turadi. 2021-yilda atigi 6,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024–2025-yillarda 25 foizdan oshib, viloyatda yetakchi hududlardan biriga aylangan. Bu yerda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilgani va hududning iqtisodiy ahamiyati oshganini anglatadi.

Shahrisabz tumani ham barqaror yuqori ulushga ega bo‘lib, 2021-yildagi 11,0 foizdan 2025-yilga kelib 14,2 foizgacha o‘sgan. Bu hududda investitsiya jarayonlari izchil davom etayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, Ko‘kdala tumani ham muhim ulushga ega bo‘lib, 2021-yilda 14,0 foizni tashkil etgan, keyinchalik biroz pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2023–2025-yillarda 10 foiz atrofida barqarorlashgan.

